

ISAJON SULTON IJODIDA FOLKLOR AN'ANALAR

Mohigul Vaisova,
Qoraqalpoq davlat universiteti, Nukus

Anotatsiya:

mazkur maqolada xalq og'zaki ijodi va yozma adabiyot munosabati, folklarga xos unsurlarning zamonaviy hikoyachilikda qo'llanilishi, ayniqsa, tush motivi, miflarning poetik jozibasi mahoratli yozuvchi Isajon Sulton hikoyalari asosida ilmiy tahlil qilindi. Shuningdek, ijodkor uslubining shakllanishida xalq og'zaki ijodi namunalarining ahamiyati va ro'li nazariy jihatdan yoritildi.

Kalit so'zlar: folklorizm, folklor, motiv, tush motivi, mif, safar motivi, tog' timsoli, qahramon, obraz, poetika, badiiyat, uslub, syujet.

Ma'lumki, ijodkor uslubining shakllanishida o'zi tug'ilib o'sgan joy, o'sha xalqning urf-odatlar, oiladagi hayot tarzi, ustozlarning alohida o'rni bor. "Uslub – yozuvchining voqelik va insonni idrok qilishi, ularning qalbidagi haqiqatning kashf etishi va uni so'z vositasida obrazli ifodalay olishi – bu vazifalarni individual tarzda yaratish san'atidir." [H.Umurov; 2002.236] Isajon Sulton hikoyalarining badiiy qurilmasi va uslubidagi xalq ertaklari, afsonalari, rivoyatlariga xos bayonchilik, soddalik, qolaversa, ertak qahramonlariga o'xshash jabrlangan, sodda, oddiy odamlarning turmush tashvishlari, ularning o'y-xayollari o'quvchi diqqatini o'ziga jalb etadi. Masalan, "Oydinbuloq", "Avazboylik tantilar", "Bibi Salima", "Shamolli kecha", "Bog'i Eram", "Manzil", "Qish ertaklari", "Ona-yurt sog'inchi" kabi qator hikoyalarida bu badiiy xususiyatlar yarqirab ko'rinish bergan deyish mumkin.

Adib badiiyatida insoniyat va insonni anglash, uning maqsad va vazifalarini belgilash sharqona badiiy-falsafiy konsepsiyada ochib berilmoqda. Serqirra ijodkor Ulug'bek Hamdam Isajon Sulton haqida shunday degandi: "...Uning ijod yo'li anchagina o'ziga xos. Yozuvchi 90-yillarning boshlarida mo'jazzgina kitobchasi - "Oydinbuloq" bilan ko'zga tashlanib, adabiy davralarni o'ziga bir qaratib olgach, hayot deb atalgan tubsiz va cheksiz teranliklarga sho'ng'ib ketgan, 2010-yilda qator hikoyalar va romanlar bilan u ummondan bosh ko'targan ijodkordir".

Folklor asarlari o'zining hayotiyliги ijtimoiy tabiati, g'oyaviy mohiyati hamda badiiy xususiyatlari bilan adabiyotimizda o'ziga xos o'ringa ega. Xalq mehnati,



urf-odati, turmush sharoiti, orzu-istagi, kurash va g'alabalari, uning mavzusi va mazmunida aks etadi. Yozuvchi va adabiyotshunos Isajon Sulton ijodida ham ota-bobolarimizdan meros bo'lib kelayotgan, necha zamonlar chig'irig'idan o'tgan, ko'pchikning xotirasidan ko'tarilayotgan ko'plab betakror og'zaki ijod na'munalarini ko'rishimiz mumkin. Isajon Sulton ijodida xalq og'zaki ijodi namunalarini aka ettirish, folklor unsurlaridan foydalanish, folklor motivlari vositasida qiziqarli syujetlar tanlash adibning o'ziga xosligini belgilaydi.

Isajon Sultonning o'ziga xosligi folklorizm bilan zamonaviylikni birlikda uyg'unlashtira olganligidir. Adib o'zbek adabiyotining nodir durdonalari bo'lmish xalq og'zaki ijodi namunalariga katta qiziqish bilan qaragan va folklorizmni o'z ijodida ham aks ettirgan. Masalan, folklor janrining tarkibiga kiruvchi tush motivini olsak. Aynan tush motivi Isajon Sulton hikoylarida ko'proq uchraydi. Bunga misol qilib "Qismat", "Otamga nimadir bo'ldi", "Avliyo" hikoyalairini keltirishning o'zi yetarli. Endi mazkur hikoyalardagi tush mativini tahlil etishdan oldin, folklorizm va motiv haqida qisqacha to'xtalib o'tsak. Adabiyotda "folklor" va "folklorizm" tushunchalariga diqqat qaratish lozim. Adabiyotshunos Bahodir Sarimsoqov mazkur ikki atama orasidagi farqni shunday izohlaydi: "Biror ijodkor asariga biror maqsad bilan kiritilgan falklorga xos barcha materialllarni folklor deb emas, balki folklorizm atamasi bilan yuritish lozim, chunki unga ijodkor tomonidan muayyan ishlov berilgan bo'ladi"[Sarimsoqov B; 2204].

Adabiyotshunoslikda motiv haqida turli xil qarashlar mavjid. Jumladan, B.Putilov "motiv syujetning mag'zidir " degan ta'rifni bersa [Путтилов.Б; 1975. C 142], taniqli rus olimi A. N. Vaselovskiy "Motivlar birlashib syujet xalqasini yuzaga keltiradi", - deydi. D.Quronov va boshqalar tomonidan tuzilgan "Adabiyotshunoslik lug'ati"da motiv syujet sxemasi yoki biror bir narsa obraz kabi ko'rinishlarda voqe bo'lishi badiiy asarlarda mavjud motivlar aynan emas, o'zagi saqlanib qolgani holda yozuvchining badiiy fantaziya imkoniyati va ijodiy niyatlaridan kelib chiqib turli variantlarda talqin etilishi aytiladi"[Quronov D; 2010.180]. Tush motivi xalq ertaklari va epik janrlarda keng tarqalgan bo'lib, asarning o'zagini tashkil etadi, tush qahramonlarni xavf-xatarlardan ogohlantiradi, ularni safarga chorlaydi, ularning taqdirini va baxtsiz kunlarini belgilaydi.

O'zbek folklorida tush motivini alohida tadqiq qilgan olim Jabbor Eshonqul hisoblanadi. U tushlarning asar strukturasida tutgan o'rmiga qarab ikki guruhiga ajratadi: 1) syujet o'zagini tashkil etuvchi na'munalar; 2) syujet ma'lum



halqalarini bog'lovchi na'munalar[Eshonqulov J; 74]. Isajon Sulton hikoyalarida tush motivi, asosan, ma'lim halqalarini bog'lovchi vosita sifatida keladi va inson taqdiri, uning kelajagi to'g'risida sirli xabarlar haqidagi tasavvurlarni badiiy ifoda etishga xizmat qiladi. Yozuvchining "Avliyo "hikoyasidagi tush motivi taqdir va kelajakning amalga oshuvi insonning o'z intilishlari va xatti - harakatlariga bog'liq ekanligidan dalolat beradi. Hikoya qahramoni Abduqodir bolalik paytida firdavs jannatini tushida ko'radi, keyinchalik yana uch- to'rt marotaba bir xil tush ko'radi. "Har safar to'rt tarafi qorong'ulik bo'lgan tushunarsiz bo'lgan bir makon ichida yashil nur og'ushida tovlanib ko'rinardi"[Sulton I; 2017.186]. Bog' tarafiga ip kabi ingichka va yorug' nur tolasi bir yo'l monand cho'zilib ketgan edi. Abduqodir avval jannatni keyin do'zaxni ko'rishi bu -uning dunyoda qilgan amallarining samarasidir. Bu tush Abduqodirning hayoti risoladagidek o'tmayotgan umrga ishora qiladi. Bu hikoyada insonga bir marta beriladigan umr, u bir kun kelib tugashi, hech narsani orqaga qaytarib bo'lmasligi, inson qilgan barcha amallariga hisob - kitob qilinishi tabiat tasviri, ramz va majozlar orqali ochib berilgan.

Yuqorida izohlab o'tilgan folklorizm va tush motivi Isajon Sultonning ko'plab asarlarida uchraydi. Aynan uning "Qismat" hikoyasida ham tush motivini uchratamiz. "Qismat" hikoyasida xalq og'zaki ijodiga aloqador bo'lgan tush motivi, qadimgi mifologik motiv baliq obrozi, qarg'ish kabi folklorizmlarni ko'rishimiz mumkin. "Qismat" hikoyasi o'z epigrafi bilan ham diqqatni tortadi. Hikoyada "Otangga cho'p otsang, kun o'tib bir kun farzanding senga tosh otmog'i mumkin" degan hikmatli gap keltiradi. Epigrafdan ham ma'lumki asarda ota va bola munosabatlari yoritiladi va aynan voqealar tush motivi orqali ochib beriladi. Bu hikoyada qadimgi mifologik motiv - inson ruhining baliqqa aylanishi qahramonning ichki dunyosini ochib berishda asosiy vazifani bajargan. Otasi vafotidan keyin using ruhi baliqqa aylanishi, baliqning qozonda jizillab qovrilishini qahramon do'zax azobi sifatida qabul qiladi. Bu orqali u zulmkor otasini do'zax olovida qovrilayotganini tasavvur qiladi. Ruhning baliq bo'lib qozonda qovrilishi hikoya mazmunini kuchaytiradi. Hikoyada ona obrazining achchiq qismati, umr yo'ldoshidan biror marta ham yaxshilik ko'rmasada, undan ta'na-yu dashnomlar eshitsada, erini "rahmatiga olgan bo'lsin" deb eslaydi. Bu orqali biz sharq ayolining eriga bo'lgan sadoqatining go'zal ifodasini ko'rishimiz mumkin. Hikoyada adib asosiy e'tiborini insonning qilmishi tasviriga qaratgan. Haqiqatdan ham, biz hikoya oxirida otaga cho'p otsang, kun o'tib farzanding senga tosh otmog'i mumkin ekanligini bilib olishimiz mumkin.



Bundan tashqari adibning "Manzil" hikoyasida yoritilgan motiv bu - safar motividir. "Manzil" hikoyasidagi qahramonlar hikoya qiluvchi ro'iy, katta og'a, Muslim, Abdulla va Muhammadlar uzoq manzilni ko'zlab yo'lga chiqishadi. Ularning maqsadlari o'zlariga tegishli xazinani topish edi. Bu hikoyaning xalq og'zaki ijodi bilan o'xshash tarafi shundaki, hikoyadagi qahramonlar xalq ertagi va dostonlaridagi kabi tog'lar, vohalar, sahrolarni bosib o'tishadi. Safarga chiqqan qahramonlarning Kohi Qof tog'iga yetib kelishi va ko'pchiligining o'sha yerda qolib ketish jarayonlarining yoritilishi ham aynan folklorizm bilan bog'liq. "Manzil" hikoyasi boshdan oyoq ramz asosiga qurilgan. Bunda safar go'yo inson umri. Yo'lda uchragan gulzor-u cho'llar uning xursandchiligi - yu g'amiga o'xshaydi. Bundan tashqari hikoyada mifologik qarashlar ham bor. Mazkur hikoyada tog' "inson oyog'i yetmaydigan, faqat tanlangan shaxslar yoki mifologik persanajlar yordamida borishi mumkin bo'lgan epik makon" sifatida talqin qilingandir [Eshanova Z; 2018. 18]. Hikoyani o'qib bo'lganimizdan so'ng quyidagicha sharhlashimiz mumkin: "Ey dil, o'tayotgan har bir lahzadan o'zligingga, o'zligingdan esa har bir lahza nazar sol. Sen chir aylanib qidirayotganing, aytaylik, tilsim tog'i, ajab emaski, shu oraliqdan topilsa!" [Hamdamov U; 2017.149].

Muxtasar qilib aytganda, adib hikoyalarida folklor unsurlaridan foydalanish muallifning estetik-idealini namoyon qiluvchi, dunyoqarashini ifoda etuvchi vosita sifatida qabul qilinadi. Isajon Sulton o'z asarlari orqali milliy o'zlikni ifoda etish bilan birga, insonning tirikligi, hayoti va bu dunyoga kelishidan maqsad ne ekanligini anglash inson uchun g'oyatda muhim vazifa ekanini uqtiradi. Aytish mumkinki, folklor Isajon Sultonga o'z yo'li, uslubi, o'zligi va o'q ildizini topishga yordam bergan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Умуров Х. Адабиётшунослик назарияси. - Тошкент: Шарқ, 2002. -Б. 236.
2. Sarimsoqov B. "Badiiylik asoslari va mezonlari". Toshkent. Fan. 2004
3. Eshanova Z. "O'zbek xalq dostonlarida tog' obrazi: genezisi va badiiy talqinlari" Toshkent. 2018-yil. 18- bet.
4. Путилов.Б. Мотив как сюжетобразующий элемент//Типологическое исследование по фольклору-Москва:наука 1975- С 142
5. Kuronov.D, Mamajonov Z, Sheralieva M "Adabiyotshunoslik lug'ati"- Toshkent.Akademnashr, 2010 180- bet



6. Eshonqulov. J "Mif va badiiy tafakkur ".-Toshkent: Fan-B. 74
7. Isajon Sulton Avliyo/ Asarlar . Hikoyalar 1- jild -Toshkent: G'ofur G'ulom nomidagi nashriyot- matbaa ijodiy uyi, 2017 186- bet
8. Ulug'bek Hamdam. Oydinbuloq oydinligi //Isajon Sulton nasri badiiyati - Toshkent:Turon zamin ziyo, 2017 149- bet

